


Mavzu: Tarixiy shaharlarimizga sayohat.

Asosiy maqsad: O'quvchilarning o'zbek tiliga bo'lgan qiziqishlarini oshirish bilan birga, tarixiy shaharlarimizga bo'lgan qiziqishlarini oshirish va ularning sir-asrorlarini o'rganish, muammolarini yechishni yo'lga qo'yish.

**Zamonlar o'taveradi, davrlar o'zgaraveradi
ammo, Vatan abadiydir. Vatanni sevish,
suyib-ardoqlash bor vujiding bilan jo'shib
kuylash eng oliy baxtdir.**

I.A. Karimov







Xiva.

Xiva - afsonaviy shahar. U O'zbekistonning shimol qismida, Xorazm vohasida joylashgan eng qadimiy shaharlardan biri. Xiva XVII asrlarda tashkil topgan bo'lib, qadimiy yodgorliklari, muhtasham binolari yaxshi saqlangan noyob muzey shahardir. Shaharning markazida O'rta Osiyodagi eng qadimiy inshootlaridan biri - ko'p ustunli Juma masjidi qad ko'tarib turibdi.

Ichan qa'la nomi bilan mashhur qadimiy Xiva yodgorligi mavjud. Ushbu muzey shaharni ko'rgani har yili dunyoning turli mintaqalaridan kelgan yuz minglab sayyohlar tarixiy yodgorliklarni zavq bilan tomosha qiladi. "Movarounnahr - buyuk allomalar yurti" deb bejiz aytilmaydi. IX-XI asrlarda Movarourmahrda o'yg'onish davri boshlangan va ilm-ma'rifat yuqori cho'qqiga chiqqan. Bu davrda jahon ilmiga beqiyos hissasini qo'shgan olimlar ijod qilganlar.



Buxoro.


Buxoro ham me'moray yodgorliklarga boy 1995-yilda Buxoronig 2500 yilligi nishonlandi. Buxorodagi Samoniylar maqbarasi, Minorai Kalon, Ark ansambli va boshqalar jahondagi eng qadimiy me'morchilik obidalaridan hisoblanadi. Buxoro nafaqat qadimiy obidalari balki qora ko'li, zardo'zligi vaboshqa hunarmandchilik sohalari bilan ham mashhurdir. Butun dunyodan kelgan sayyohlar Buxoroda tikilgan zardo'zi do'ppilar, to'nlarni xarid qilmay ketmaydilar Buxoro shahrida tabobat ilmining asoschisi Abu Ali ibn Sino, hadislar ilmining asoschisi Imom al-Buxoriy yashab ijod qilishgan. Buxoro SHarqda ikkinchi Madina nomi bilan ham mashhur bo'lib u yerdagi madrasalarda juda ko'p ilm ahllari ta'lim olishgan.






Samarqand.

Samarqand jahondagi eng qadimiy shaharlardan biri. Bobil, Rim, Afina shaharlari bilan tengdoshdir. Samarqand 1970 – yilda shonli to'yi – tashkil topganining 2500 yilligini nishonladi. U qadimiy me'morchilik obidalariga boyligi tufayli, haqiqiy muzey shahar sifatida butun dunyoda tan olingan. Samarqandning Shohi Zinda ansambili, Go'ri Amir maqbarasi, Bibixonim masjidi, Registon maydoni, Ulug'bek rasdxonasi, SHerdor madrasasi va boshqa obidalari ming yillardan beri barchani maftun etib keladi. Bu obidalarning ko'pchiligi sohibqiron Amir Temur davrida bunyod etilgan.

Amir Temur o'z poytaxti Samarqandning eng go'zal shaharlarga aylantirish maqsadida o'zi zabd etgan barcha mamlakatlardan mashhur hunarmandalar, quruvchilar, me'morlar va ustalarni keltirib, madrasa va masjidlarni qurdirgan. SHundan beri hunarmandlar va ilm ahllari ta'lim oluvchi maskanga aylangan.







Yangi so'zlar.

tarixiy- исторический


- qadimiy – древний
- sayohat – путешествие
- ajdodlar-предки
- meros - наследство
- allomalar - ученый
- buyuk - великий
- zamin, yer – земля
- sharq- восток
- maqbara - гробница, мавзолей
- ilm ahli - люди, науки
- taassurot – впечатление
- afsonaviy - легендарный
- mintaq - регион
- ko'hna - древний, старинный

Mustahkamlash uchun beriladigan savollar


1. Tarixiy shaharlar qaysilar?
2. Tarixiy shaharlarda qaysi mashhur kishilar yashab ijod etgan?
3. Buyuk allomalarimizdan kimlarni bilasiz?
4. Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlarda qanday tarixiy va me'moriy obidalar bor?
5. Ulug'bek rasadxonasi qayerda joylashgan?
6. Nima uchun Buxoro ikkinchi Madina deb ataladi?
7. "Sharq taronalari" festivali qaysi shaharda va qanday o'tkaziladi?
8. Tarixiy shaharlar haqida sayyohlar qanday fikrlar bildirishgan?
9. Samarqandning taraqqiy etishida Amir Temurning roli.
10. Siz qaysi tarixiy shaharlarda bo'lgansiz?



“So'z o'yini”



**Samarqand, Buxoro so'zlari bosh
harflarga so'z tuzamiz**



Samarqand



Buxoro

Darsni savol-javob orqali mustahkamlash va o'quvchilarni qizil va ko'k kartochkalar bilan rag'batlantirib, baholash.

- 1. Prezidentimiz I.A. Karimovning "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asari haqida nimalar bilasiz?**
- 2. Tarixiy shaharlarimizda qanday obidalar bor?**
- 3. Tarixiy shaharlarda yashab o'tgan allomalar kimlar va ular qanday meros qoldirgan?**

Sizlarning bilimingizni "Rag'bat" va "Jarima" kartochkalari bilan babolab bordik. Ikkala guruh ham yaxsbi muvaffaqiyatlarga erishdi.

- Hurmatli o'quvchilar! O'zbek tilini o'rganishdan maqsad, nafaqat til o'rganish balki o'sha xalqning tilini o'rganish orqali uning tarixini milliy urf odatlarini, naqqoshlik, zardo'zchilik, zargarlik kabi hunar sirlarini o'rganish va shu Vatanga sodiq bo'lishdir.**
- Mana bugun dars davomida biz siz bilan Vatanimiz tarixi va unda yashab o'tgan allomalarimiz haqida ancha ma'lumotga ega bo'ldik . Tarixiy shaharlarga sayohat qilar ekanmiz ajdodlarimizning naqadar boy tarixga ega ekanligi o'rganib yurak-yurakdan faxrlanish tuyg'usini his qilamiz va shunday go'zal va maftunkor o'lkada yashayotganligimizdan faxrlanamiz.**

Uyga vazifa: Samarqand, Buxoro, Xiva matnlarini o'qib, mazmunini so'zlab berish. Qoida va lug'atni yod olish. Lug'at bilan gap tuzish.